



DIQQATNING NEYROFIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI VA ONTOGENEZDA O`ZGARISHI.



- **Diqqatning rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshadi :**
- **Bola hayotining birinchi hafta va oylarida mo'ljal olish refleksi namoyon bo'lib, u ihtiyorsiz diqqatni obyektiv tug'ma belgisi bo'lib, diqqatning jamlanishi juda past darajada bo'ladi.**
- **Birinchi yil ohiriga kelib mo'ljal olish – tadqiq etish faoliyati kuzatilib, ihtiyoriy diqqatni kelajakdagi rivojlanish vositasi hisoblanadi.**
- **Bola hayotining ikkinchi yilida ihtiyoriy diqqat negizlari namoyon bo'ladi: kattalar ta'siri asosida bola diqqatini nomi aytilgan predmetga qaratadi.**
- **Bola hayotining ikkinchi yilini ohiri va uchinchi yilida ihtiyoriy diqqatni boshlang'ich shakli rivojlanadi. Bu yoshda bola ikki predmet yoki harakatga nisbatan diqqatini taqsimlay olmaydi.**



Diqqat buzilishlariga quyidagilar xos :





- - Diqqatni saqlay olmaslik : bola topshiriqni yakuniga etkaza olmaydi;
- - Diqqat ko'chuvchanligini buzilishi, ma'lum predmet yoki hodisada diqqatni yig'a olmaslik ;
- Chalg'ishni o'sishi : topshiriqni bajarishda bola tinch o'tirmaydi, ko'pincha bir ishdan ikkinchisiga o'taveradi
- - Noodatiy sharoitda diqqatni pasayishi.
- Diqqat buzilish turlari : chalg'uvchanlik, giperharakatchanlik, inertlik, turg'unsizlik va h.z.

- Diqqat - psixik faoliyatning yo'naltirilishi va shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan ob'ekt ustida to'planishidan (barqaror yoki situatsiyali to'planishidan) iboratdir. Yo'naltirilishi deganda psixik faoliyatning tanlovchanlik xarakteri, ob'ektni ixtiyoriy yoki beixtiyor tanlash tushuniladi. Masalan maktab o'quvchisining biron boshqa narsaga chalg'imasdan, o'quv materialining mazmuniga zehn qo'yib o'tirishda uning psixik faoliyatning yo'nalishi ifodalanadi.



- Psixik faoliyatning yoʻnalishi deganda, faqat ana shu faoliyatni tanlashgina tushunilib qolmay, balki ana shu tanlanganini saqlab qolish va qoʻllab-quvvatlash ham tushuniladi.



- Diqqat psixik faoliyatning yo'naltirilishi bilan birga, uning TO'PLANISHINI ham taqozo qiladi. Psixik faoliyatning bir joyga to'planishi - mazkur faoliyatga hech qanday aloqasi bo'lmagan hamma boshqa narsalardan, boshqa hamma faoliyatdan diqqatni chalg'itish demakdir. Diqqatni bir joyga to'plash deganda, mazkur faoliyatga butunlay berilish, unga ozmi-ko'pmi chuqur e'tibor berish tushuniladi. Masalan murakkab va zarur o'quv materialini o'qish va tushunish diqqatni to'plashsiz amalga oshmaydi.

- Diqqat - kishi faoliyati barcha turlari, eng avvalo mehnat va o`quv faoliyati samaradorligini muhim va zarur shartidir. Mehnat qanchalik murakkab va mas'uliyatli bo`lsa, u diqqatga shunchalik katta talablar qo`yadi.



- Ziyraklik kishiga uning kundalik hayotida, turmushida, boshqa odamlar bilan munosabatga kirishishida zarurdir. O`quvchilarning diqqat e`tibori o`quv tarbiya jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning asosiy shartlaridan biridir. Ta`lim olishda diqqatning rolini ta`kidlarkan, buyuk rus pedagogi K.D.Ushinskiy «diqqat aynan shunday bir eshikka, tashqi olamdan kishi qalbiga kirib keladigan jamiki narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi» - deb yozgan edi.

- Diqqat individning hissiy, aqliy eki ha rakatlantiruvchi faolligi darajasininig oshirilishini taqoza etadigan tarzda ongning yo`naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir. Soddarog qilib aytadigan bo`lsak, diqqat - deb ongimizning bir nuqtaga to`plab, ma'lum narsa va hodisalarga aktiv yo`naltirilganiga aytiladi. Biz faoliyatimiz jarayonida idrok va tasavvur qiladigan har bir narsa, har bir hodisa, qilgan ishimiz, uy va fikrlarimiz diqqatining ob'ekti bo`ladi. Diqqat paytida ongning bir nuqtaga to`planishi, ong idrokning torayishidan iboratdir.

- Ongning eng yuqori nuqtasi diqqatning markazi deb ataladi. Ana shu nuqtaga tushgan barcha narsalar, ya'ni idrok qilinayotgan predmetlar, tasavvurlar fikrlar to'la yorikin holda aks ettiriladi. Diqqat sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur va harakat jarayonlarida namayon bo'lishi mumkin. Diqqat aqliy jarayonlarning sifatini ta'minlaydigan ichki aktivlikdir. Diqqat har qanday faoliyatning muhim shartidir.